



INGLIZ TILI FANIDAN QO`SHIMCHA MASHG`ULOTLARDAN FOYDALANISHNING AFZALLIGI

Mahmudova Zulxumor Rahmatullayevna

Andijon mashinasozlik instituti akademik litsey ingliz tili fani o`qituvchisi.

Annotatsiya: *Ingliz tili fanini o`rganish hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. O`quvchilarga har tomonlama va chuqur o`rgatish maqsadida qo`shimcha darslardan foydalaniladi va turli metodlar orqali bilimlari boyitiladi. Ushbu maqola darsdan so`ng mashg`ulotlarning ahamiyati va ularda qo`llaniladigan metodlar haqida ma`lumot beriladi.*

Kalit so`zlar: *ingliz tili, ko`rgazmali va texnika vositalari, metodlar, zamonaviy texnologiyalar, o`yinli darslar, qo`shimcha mashg`ulotlar.*

Abstract: Learning the English language is one of the urgent tasks of today. In order to teach students comprehensively and deeply, additional lessons are used and their knowledge is enriched through various methods. This article provides information about the importance of after-class exercises and the methods used in them.

Key words: English language, visual and technical tools, methods, modern technologies, game lessons, additional training.

KIRISH

Mamlakatimizda o`quvchilarning bilim olishi va har tomonlama yetuk inson bo`lishlari uchun juda ko`p imkoniyatlar yaratilmoqda. Shu bilan birgalikda chet tilini o`rganish uchun ham katta ahamiyat berilmoqda. Birinchi Prezidentimiz tomonidan 2012-yil 10-dekabrda "Chet tillarini o`rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risidagi qarori ham chet tillarini o`rganish imkoniyatlarini kengaytirdi. Unga ko`ra umumta`lim maktabi o`quvchilari uchun darsliklar yaratildi.



Chet tili fani 4 aspectga (o`qish, yozish, tinglab tushunish va gapirish) bo`linib, ularning har biri bo`yicha alohida ko`nikmalar va tushunchalar berilmoqda.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Dars jarayoni va qo`shimcha mashg`ulotlarda turli vositalar, ya`ni zamonaviy texnologiyalardan foydalanib o`rgatish va o`rganish eng samarador usullardan biridir. Ushbu texnologiyalardan foydalanilsa, maqsadga muvofiqdir:

1. Kompyuterlardan foydalanganda o`quvchi ingliz tilidagi videoroliklarni, namoyishlarni, dialoglarni kino yoki multfilmlarni ham ko`rishi mumkin;
2. Ancha an`anaviy usul hisoblanadigan magnitofon va kassetalardan foydalanish;
3. CD pleyerlardan foydalanish mumkin. Bu texnik vositalardan foydalanish o`quvchilarning ingliz tilini o`rganishlari jarayonini qiziqarliroq va samaraliroq bo`lishini ta`minlaydi.

Bugungi kunda maktablarda interfaol o`yinlar orqali dars o`tish an`anaga aylanib bormoqda. Ma`lumki, darsning turli xil o`yinlar asosida o`tilishi o`quvchilarning imkoniyatlarini namoyish etish, diqqatni jamlash, bilim va ko`nikmalarini oshirish va kuchli bo`lishlarini ta`minlaydi.

Darsdan so`ng mashg`ulotlarda o`quvchilarning bilimini mustahkamlashda va o`quvchilarni qiziqtirishda turli o`yinlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. O`yin texnologiyasidan foydalanishning asosini o`quvchini faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyat tashkil etadi.

Psixologlarning ta`kidlashlaricha, o`yinli faoliyatning psixologik mexanizmlari shaxsning o`zini o`zi boshqarish, o`z imkoniyatlarini amalga oshirishning fundamental ehtiyojlariga tayanadi.

Har qanday o`yin zamirida umumiy qabul qilingan ta`lim prinsiplari yotishi mumkin. O`yinlar jarayonida o`quvchi oddiy darsga qaraganda bu mashg`ulotga qiziqibroq yondashadi va bemalol faoliyat ko`rsatadi. Chunki o`quvchilar o`yinli darslarga berilib qatnashadilar, g`alaba qozonishga intiladilar, o`qituvchi ular orqali o`quvchiga ta`lim-tarbiya ham beradi. O`quvchi inglizcha o`yin o`ynab, gapira olarkanman, deb



ishonadi, qiziqadi. Hozirgi kunda deyarli barcha o`quvchilar darsdan keyingi mashg`ulotlarga qatnashadilar.

Darsdan tashqari mashg`ulotlarni bir necha bosqichlarga bo`lish mumkin, har bir bosqich o`quvchilarning ma`lum yoshiga to`g`ri keladi. Shuni yodda tutish kerakki, bo`sh vaqtni tayyorlash va o`tkazishda foydalaniladigan lingvistik va mintaqaviy materiallarning mazmuni o`quvchilarning yoshi va psixologik xususiyatlariga mos kelishi, ularning muloqot va bilishdagi haqiqiy ehtiyojlari va qiziqishlarini aks ettirishi kerak.

Birinchi bosqich – boshlang`ich ta`lim darajasi (1-4sinflar). Ushbu bosqichda bolalar uzoq muddatli xotiraga ega. O`quvchilar oddiy qofiyalar va qo`shiqnlarni tez o`rganadilar.

Ikkinchi bosqich – o`rtacha ta`lim darajasi (5-9 sinflar). Ushbu bosqich o`quvchilari allaqachon chet tilini bilish darajasiga yetishgan hisoblanadi. Taqlid qobiliyatlari, ularning qiziquvchanligi va yangi narsalarni o`rganish zarurati bilan tavsiflanadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo`lsak, 45 daqiqalik darsda o`quvchilar o`zlashtirolmagan ma`lumotlari va mavzularini qo`shimcha mashg`ulotlarda bemalol mustahkamlay oladilar. Shuning uchun ham o`qituvchilar turli innovatsion usullar va o`yinlardan foydalanishlari talab qilinadi. Har bir mashg`ulotda turli xil metodlardan foydalanish o`quvchilarning qiziqishini ortadi.

Foydalaniladiganlar adabiyotlar ro`yxati:

1. Bekmuratova U. B. “Ingliz tilini o`qitishda innovatsion texnologiyalardan foydaanish” mavzusida referat.
2. O`. Hoshimov, I. Yoqubov. “Ingliz tili o`qitish metodikasi” o`quv qo`llanmasi. Toshkent.2003-yil.
- 3.Botiraliyeva, A. M., & Zaylobiddinovich, A. E. (2023). TECHNOLOGY FOR DIAGNOSING STUDENTS'COMPETENCE IN WORKING WITH



INFORMATION BASED ON ELECTRONIC EDUCATIONAL RESOURCES. IMRAS, 6(7), 370-375.

4. Kadyrov, V. A., Botiralievna, A. M., & Axunov, U. R. (2022). THEATRE OF ACTION-A DIDACTIC CONCEPT FOR THE DEVELOPMENT OF PHYSICAL EDUCATION AND CREATIVITY. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(5), 960-963.

5. Artikova, M. (2021). DEMAND FOR A COMPETENCY-BASED APPROACH TO THE ACTIVITIES OF TEACHERS IN MODERN CONDITIONS. *InterConf*.

6. Artikova, M. B. (2019). EXPERIENCE IN DEVELOPING ENTREPRENEURSHIP SKILLS IN FOREIGN COUNTRIES. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 1(7), 250-255.

7. Mirzayev, O. K. (2024). HISTORICAL AND PEDAGOGICAL ASPECTS OF THE FORMATION OF ELEMENTARY ENTREPRENEURIAL SKILLS OF CHILDREN IN PRESCHOOL EDUCATION. *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*, 5(02), 167-171.

8. Xusanovich, M. O. (2021). Formation Of Elements Of Entrepreneurial Activity In Pupils Of The Preschool Educational Organization. *JournalNX*, 1, 265.

9. Mirzaev, O. (2022). The role of ethics and aesthetics in the formation of entrepreneurial relations between individuals. *Science and innovation*, 1(B6), 125-130.